

MAHALLIY KENGASHLAR HAMDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SIYOSIY- HUQUQIY JIHATLARI



Abduraxmanov Sanjarbek Sunnat o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy kengashlar va fuqarolik jamiyati instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblanadigan jamoat fondlari, jamoat birlashmasi, muassasa, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlardan ahamiyati to'g'risida muhokama yuritilib, ushbu munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari atroflicha tahlil qilinib, asoslantirilgan taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy kengashlar, jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti, nodavlat notijorat tashkilot, korrupsiyagani yuzaga keltiruvchi omil, ijtimoiy sheriklik tamoyili, jamoat komissiyalari.

Kirish. Hozirgi kunda O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy asoslarini shakllantirish hamda mustahkamlash muhimdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo'lib o'tgan yig'ilishida o'zining haqli e'tirozlarini bildirib o'tdi: "Agar xulosa qilmasanglar, buni zamon ko'tarmaydi. Faqat va faqat kengash, kengash, kengash. Qonunlar nuqtai nazaridan, talab nuqtai nazaridan, "Yangi O'zbekiston" shiori nuqtai nazaridan joylarda kim ishlamayotgan bo'lsa, ketishi kerak, menga taklif beringlar. Kengash ovozi baralla xalq ovozi bo'lishi kerak, xalqning dardi bilan yashashi kerak. Kengash qaror qildimi, qonun bo'lishi kerak. Nimaga desangiz, jamiyatimizda sifat nuqtai nazaridan odamlarning talabi o'sib bormoqda". [1]

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-yanvardagi Oliy Majlis Senatingin birinchi majlisidagi nutqida haqli ravishda quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Eng achinarlisi, mahalliy kengashlar hududlardagi dolzarb masalalar yechimini topishda o'z vakolatlaridan deyarli foydalanmayapti. Ma'lumki, so'nggi davrlarda, ayniqsa oxirgi uch yilda mahalliy kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, hokim, hokim o'rinnbosari, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq va sog'liqni saqlash idoralari rahbarlarining hisobdarligi belgilab qo'yildi. Qonunchilikda mahalliy kengashlarga bunday keng vakolatlar berilgan bo'lsada, amalda ularning natijasi ko'rinxmayapti. [2]

Bu esa o'z-o'zidan O'zbekistonda mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekistonda mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahliliga bog'liq masalalar Z.Istroilova, S.Adilxodjayeva, Sh.Asarov, D.Bekchanov, A.Dadasheva, Sh.Jalilov, G.Ismailova, A.Yoldoshev, G.Malikova, A.Mahmudov, S.Muratayev, X.Odilqoriyorov, M.Radjabova, X.Ruzmetov, I.Sobirov, A.To'laganov, I.Xamedov, O.Xusanov, A.Babadjanovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida V.Ayseenko, A.Akmalova, G.Atamanchuk, M.Baglay, V.Baranchikov, G.Barabashev, N.Bandar, V.Bocharov, T.Byalkina, O.Kishakovskaya, R.Muxayev, M.Yegorovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa A.Gerbert, M.Jefferi, A.Tompson, U.Donald, V.Smitburg, Jesse Ribbot, Keys Miller Allin Lokner (AQSH), A.Chandler, J.Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek (Shveysariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o'rganilgan.

Muhokama va natijalar. Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 8-maydagi "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi 763-I-son Qonun 2-moddasiga ko'ra, nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingen daromadlarni (foydan) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti ekanligi, nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun haimda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuzilishi belgilangan. [3]

Shuningdek, yuqoridagi Qonun 10-14-moddalariga binoan, nodavlat notijorat tashkilotlarning quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllari, ya'ni turlari mavjud:

- jamoat birlashmasi – ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi;
- jamoat fondi – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lмаган nodavlat notijorat tashkiloti;
- muassasa – ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti;
- xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti – o'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot.

Demak, mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar deyilganda, mahalliy kengashlar hamda jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

Huquqshunos olim A.Maxmudovning fikriga ko'ra, mahalliy kengashlar nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qilmaydi, aksincha ular bilan ijtimoiy sheriklik tamoyili asosida faoliyat olib boradi. [4]. Ya'ni, yuqoridagi huquqshunos olimning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarda bo'ysunish emas, balki ijtimoiy sheriklik tamoyilini qaror topishi muhimdir.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning asosiy yo'nalishlari ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun hujjatlarida aniq mustahkamlab qo'yilmaganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonunda ushbu to'g'risida siyosiy-huquqiy normalar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 8-maydagi "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi 763-I-son Qonun 4-moddasida esa juda ham umumiy siyosiy-huquqiy norma mavjud bo'lib, unda faqatgina davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi, nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkinligi, davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida so'z boradi. Shu sababli, birinchidan, yuqoridagi huquqiy bo'shlarni bartaraf etish hamda mahalliy kengashlarning fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorligini tartibga solish, ikkinchidan, ushbu holat bevosita O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdag'i "Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonuniga [5] asosan, vakolatlarning noaniqligi

hamda ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi kabi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni yuzaga kelishini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonunini quyidagi mazmundagi huquqiy norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorlik qiladi". Ushbu taklifdagi qonunchilik hujjatlarini deyilganda, normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilmoqda. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatni institutlari tarkibiga kiradi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarining o'rni muhim ekanligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-376-son Qonun 17-moddasida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining tashabbuslarini rivojlantirish hamda rolini kuchaytirish, shuningdek ularning joylarda sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishdagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qonunchilikka muvofiq jamoat fondlari tuzilishi mumkinligi, 18-moddasida esa jamoat komissiyalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari mablag'larining samarali taqsimlanishini tashkil etadi, shuningdek ulardan maqsadli foydalanimishi ustidan monitoringni amalga oshirishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarining vasiylik kengashi vazifasini bajarishi, o'z faoliyatini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq amalga oshirishi belgilangan. [6]

Uchinchidan, hokimning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini xalq deputatlari Kengashi tomonidan eshitishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 25¹-moddasi beshinchi qismida viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli hududda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari taklif etilishi mumkinligi belgilangan. Bizning fikrimizcha, ushbu siyosiy-huquqiy normada nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillarining taklif etilgan holatda ishtirok etishi emas, balki ularning o'zları ham xohish bildirganda ishtirok etishini ta'minlab beradigan siyosiy-huquqiy mexanizmni mustahkamlab qo'yish lozim.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlardan deyilganda, mahalliy kengashlar hamda jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlardan tushuniladi.

O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlarning asosiy yo'nalishlari ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun hujjatlarida aniq mustahkamlab qo'yilmaganligi;
- O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtaisdagi munosabatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarining o'rni muhim ekanligi;

- hokimning viloyat, tumän, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini xalq deputatlari Kengashi tomonidan eshitishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki.

•

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidagi nutqi, <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi 763-I-sod Qonun, 1999-yil 8-may, <https://lex.uz/docs/-11360>.
4. Maxmudov A. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.: 2019.– B.92.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-sod Qonuni, 2023-yil 8-avgust, <https://lex.uz/docs/-6561894>.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-sod Qonun, 2014-yil 25-sentabr, <https://lex.uz/docs/-2468214>.